



89. Doira va aylana

Yondosh mavzu:
shahar landshafti.

Doira, aylana,
radius, diametr.





1. Rasmdagi narsalar qanday shaklda? Ularda qanday umumiylik bor? Ular nimasi bilan farq qiladi?



2. Rasmlarni ko'rib chiqing. Doira va aylananing elementlarini aytib bering.

- Aylananing markazi
- Doiraning markazi
- Radius
- Diametr
- Ichki soha
- Doiraning chegarasi



Aylana bilan doira bir-biriga bog'liq: aylana – bu doiraning chegarasi, doira esa aylana va uning ichki sohasi. Aylana bir nuqtaning atrofida yasaladi. Bu nuqta aylananing markazi deyiladi.


Aylananing markazi bilan uning istalgan nuqtasini tutashtiruvchi kesma radius deb ataladi.

Aylananing markazidan o'tib, uning ikkita nuqtasini tutashtiruvchi kesma diametr deb ataladi.






3. Daftaringizga aylananing barcha radiuslarini chizing. Chizg'ich bilan aylananing istalgan bir radiusini o'lchang va uning uzunligini yozing.



4. Yumaloq maydonchani diametri 40 m 6 dm. Bu maydonchani radiusini toping.



5. Istirohat bog'ini ko'kalamzorlashtirish uchun chinor, qayrag'och va akatsiya ko'chatlari keltirildi. Hammasi bo'lib nechta ko'chat olib kelingan?



78 ta ko'chat



18 ta ko'p ko'chat



3 marta kam ko'chat



6. Bo'lishni bajaring. Uch xonali javoblarni o'sish tartibida joylashtiring. Bir yoki ikki tomoniga daraxtlar ekilgan yo'lak qanday ataladi?

X 1 325 : 5

I 3 780 : 12

N 4 080 : 2

O 6 186 : 6

Y 3 192 : 7

B 8 940 : 10

O 5 588 : 11

89. Doira va aylana



7. Hisoblang.

$$90 \cdot 100$$

$$10\,000 \cdot 28$$

$$50 \cdot 300$$

$$58 \cdot 1\,000$$

$$1\,000 \cdot 621$$

$$200 \cdot 70$$

$$305 \cdot 1\,000$$

$$100\,000 \cdot 293$$

$$6\,000 \cdot 3\,000$$



8. Murakkab masalalarni yeching. Har bir band uchun ifoda tuzing. Ularning qiymatlarini noma'lumlarning berilgan qiymatlarida hisoblang.

a) Bog'da tomoni a bo'lgan kvadrat shaklidagi gulpushtilar o'rnatildi. Har bir gulpushtining yuzini toping. ($a = 1\text{ m } 8\text{ dm}$)

b) Bitta gul uchun $b\text{ cm}^2$ yer kerak. Bitta bunday gulpushtiga nechta gul eksa bo'ladi? ($b = 9\text{ cm}^2$)

d) Bog'da n ta yumaloq va undan 2 marta ko'p kvadrat gulpushti bor. Bog'da jami nechta gulpushti bor? ($n = 12$)

e) Agar yumaloq gulpushtiga ham, kvadrat gulpushtiga ham bir xil miqdorda gul ketsa, bu gulpushtilar uchun jami nechta gul ko'chati olib kelish kerak?




9. Jasur, Madina, Aziza va Akmal bog'da arg'imchoq uchishyapti. Uch kishi uchayotgan paytda bir kishi rukzaklarga qarab turdi. Agar Jasur hammadan ko'p – 10 marta, Aziza esa hammadan kam – 7 marta uchgan bo'lsa, har bir bola necha martadan arg'imchoq uchgan?




10. 570 240 soni 2, 3, 4, 5, 6, 7, 9 va 11 sonlaridan qaysi biriga bo'linmaydi?




11. Qaysi doiraning diametri eng katta?




$$OA = 7\text{ dm } 3\text{ cm}$$



$$OB = 72\text{ cm}$$



$$CD = 156\text{ cm}$$



$$OM = 740\text{ mm}$$